# “O‘zkimyosanoat” AJda kiber-gigiyena bo‘yicha seminar-trening

// 15.10.2025
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-ajda-kiber-gigiyena-bo-yicha-seminar-trening




Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida kiber-xavfsizlik va kiber-gigiyenaga amal qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu munosabat bilan “O‘zkimyosanoat” AJda Avtomatlashtirilgan axborot-analitik markazi, jamiyat bo‘limlari va tizim korxonalari xodimlari ishtirokida kiber-savodxonlikni oshirishga qaratilgan seminar-trening o‘tkazildi.




Tadbirda "Kiberxavfsizlik markazi" DUK mutaxassislari ishtirokida konfidensial ma’lumotlarni himoya qilish, ko‘p faktorli autentifikatsiya, fishing va kiber-firibgarlik, messendjer va elektron pochta xavfsizligi, shuningdek, sun’iy intellekt yordamida sodir etilayotgan kiberjinoyatlar kabi dolzarb mavzular muhokama qilindi.





Mazkur tadbir xodimlaring kiber-savodxonligini oshirish hamda axborot xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

**“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati**